# GENDER LINGVISTIKASINING AYOLLAR NUTQIDA AKS ETISHI

**Jo'rayeva Zuxroxon**

**Annotasiya**. *Ushbu maqolada gender lingvistikasining o'ziga xos asosi sanalgan ayollar nutqi hamda uning pragmatik voqelanishi xususida so'z yuritiladi. Qayd etish lozimki, ayollar nutqi erkaklar nutqidan ma'lum sifatlarni qamrab olishiga ko'ra farq qiladi va bu aynan ushbu maqolamiz obyekti sifatida tahlilga tortildi.*

***Kalit so'zlar***: *ayollar nutqi, pragmatik xususiyat, nutqiy muomala, genderologiya.*

# ОТРАЖЕНИЕ ГЕНДЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ В ЖЕНСКОЙ РЕЧИ

**Джораева Зухрохан**

**Абстрактный.** *В данной статье говорится о женской речи и ее прагматической реализации, которая считается уникальной основой гендерной лингвистики. Следует отметить, что женская речь отличается от мужской тем, что включает в себя определенные качества, именно это и было проанализировано в качестве объекта данной статьи.*

**Ключевые слова**: *женская речь, прагматический признак, речевое поведение, гендерология.*

# REFLECTION OF GENDER LINGUISTICS IN WOMEN'S SPEECH

**Jorayeva Zukhrokhan**

**Abstract**. *This article talks about women's speech and its pragmatic realization, which is considered a unique basis of gender linguistics. It should be noted that women's speech differs from men's speech in that it includes certain qualities, and this is precisely what was analyzed as the object of this article.*

**Key words**: *women's speech, pragmatic feature, speech behavior, genderology.*

Ma'lumki, bugungi kunda genderologiya sohasi yanada taraqqiy etib, tilshunoslik fanida hamo'zining sezilarli ta'sirini namoyon etmoqda. Tilga xos qonun-qoidalarning genderologiya asosida tadqiq qilinishi, erkak va ayollar nutqiga oid pragmatik tavsif ushbu yo'nalishning naqadar keng qamrovga ega ekanligidan dalolat bermoqda. Bizning ushbu maqolamiz ham aynan ayollar nutqining pragmatik voqelanishiga oid bo'lib, ushbu mavzu yuzasida lingvistik tahlil asosidadir mulohazalar maqoladan o'rin olgan.

Ayollar nutqi gender lingvistikasining o'rganish obyektlaridan biri sanalib, ularning nutqiga o'ziga xos sifatlar mavjud. Jumladan, ularni yosh davrlariga muvofiq guruhlash mumkin:

1. *Kichik yoshli ayollar nutqiga xos xususiyatlar*.
2. *O'rta yoshli ayollar nutqiga xos xususiyatlar*.
3. *Katta yoshli ayollar nutqiga xos xususiyatlar*.

Yuqoridagi guruhlanish ularning psixologik, sotsiologik, muhit ta'siri o'laroq ham bir-biridan farqlanishi mumkin. Birinchi guruhga oid ayollar(qizlar), avvalo, o'z nutqlarida so'roq gaplarni aks ettiradilar, ya'ni yangi bilim egallash, ularni hayotga tatbiq etish borasida ko'nikma hosil qilish ularning so'roq gaplarni ishlatishlariga sabab bo'ladi. Masalan: kelgusida qanday kasb egallashi mumkin, buni qanday bajarish kerak. Yoki ushbu yoshdagi ayollarda erkalanish ohangi yoki unga doir so'zlar ham keng qo'llanadi, masalan, ***oyijon, dadajon, buvijon***kabi.

Ikkinchi guruhga oid ayollar nutqiga e'tibor bersak, bu guruhning buyruq ohangi va buyruq gaplarga moyil ekanligini anglaymiz. Ijtimoiy muhit, yangi ko'nikmalar bu toifa ayollar nutqida buyruq gapga asoslanishni ko'rsatmoqda. Uchinchi toifada esa maslahat ruhidagi qolipidagi ifodalar mavjudligi namoyon bo'lmoqda. Bundan tashqari, ayollar nutqida umumiy holatda xushmuomalalikni aksettiruvchi so'z-gaplar(xush kelibsiz, yaxshi boring, yoqimli ishtaha) ifodalari, ovoz tonida melodiyaning kuchli bo'lishi, ruhiy holatga xos ovoz tonidan foydalanish; sifat, ravish, fe'l so'z turkumidan unumli foydalanishga moyillik; o'zlashtirma gaplarga urg'u berish, evfemizm, tasviriy ifoda, ibora kabi bo'yoqdor so'zlardan foydalanish kabi holatlar mos. Odatda, ayollar nutqi umumiy holatda quyidagi vazifalarni qamrab oladi, xususan, noaniqlikni ifodalash, savollarga javob berish, muhokama qilish, hissiyotlarni ifodalash, buyruq qasoslangan nutq, kerakli xususiyatlarga urg`u berish va hokazo.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, ayollar nutqining lingvistik xususiyatlari umumiy tarzda yuqoridagi fikrlar asosida aks ettiriladi. Ularning ilmiy tadqiqi sotsiologik va genderologik nuqtayi nazaridan ahamiyatli sanaladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**:

1. Гендер и язык / Под ред. А. В. Кирилиной. — М., 2005.
2. *Горошко Е. И.* Языковое сознание: гендерная парадигма. — М., 2003.
3. *Гриценко Е. С.* Язык. Дискурс. Гендер. — Н.Новг., 2005.
4. *Земская Е. А., Китайгородская М. А., Розанова Н. Н.* Особенности мужской и женской речи // Русский язык в его функционировании. Под Ред. Е. А. Земской и Д. Н. Шмелева. — М., 1993. — С. 90—136.
5. *Каменская О. Л.* Гендергетика — междисциплинарная наука. // Тезисы докладов Второй Международной Конференции «Гендер: язык, культура, коммуникация», МГЛУ, Москва, 22-23 ноября 2001 г